BADIIY ASAR TILINI LINGVISTIK NUQTAYI NAZARDAN O‘RGANISH

Ibragimov A.
Katta o‘qituvchi
Jizzax davlat Pedagogika Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asar tilini lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish masalasi yoritilgan bo‘lib, o‘zbek adabiyotshunosligida bu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Muallif badiiy tilning xalq tili bilan uzviy bog‘liqligini, unda xalqchillik ruhi ustunligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Abdulla Qodiriy, Alisher Navoiy, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom kabi yirik adiblarning badiiy tildan foydalanish mahorati

misolida so‘z estetikasi, uslubiy aniqlik va ifoda go‘zalligi tahlil etiladi. Tadqiqotda filolog olimlarning badiiy asar tili haqidagi nazariy qarashlari ham o‘rganilib, til estetikasi nafaqat adabiyotda, balki kundalik nutqda ham muhim kommunikativ va estetik ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi. Maqola badiiy asar tilini o‘rganishning metodik jihatlarini ochib berib, uni ta’lim jarayoniga tatbiq etishning ahamiyatini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: badiiy asar tili, til estetikasi, lingvistik tahlil, uslub, adabiy til, xalq tili, ifoda go‘zalligi, badiiy nutq, o‘zbek adabiyoti, filologik tadqiqot.

Abstract: This article explores the study of the language of literary works from a linguistic perspective, analyzing the scholarly research conducted in this field within Uzbek literary studies. The author emphasizes the close connection between literary language and the spoken national language, highlighting the dominant spirit of folk expression in artistic texts. The article examines the linguistic mastery and stylistic precision of prominent Uzbek writers such as Abdulla Qodiriy, Alisher Navoi, Abdulla Qahhor, and G‘afur G‘ulom, focusing on the aesthetics of language, stylistic clarity, and expressive beauty. It also discusses the theoretical views of philological scholars on the language of literary works, underlining that linguistic aesthetics serves not only a literary but also a communicative and aesthetic function in everyday speech. The paper further reveals the methodological aspects of studying literary language and substantiates its importance in the educational process.

Keywords: language of literary works, linguistic aesthetics, linguistic analysis, style, literary language, folk language, expressiveness, artistic speech, Uzbek literature, philological research.

Muammoning o‘rganilishi bilan aloqador bo‘lgan adabiyotlarni kuzatish shuni ko‘rsatadiki, badiiy asar tilini o‘rganish filolog olimlarimiz tomonidan ancha salmoqli tarzda amalga oshirilgan. I.Qo‘chqortoyev adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlarni o‘zbek klassik adabiyoti, o‘sha paytlarda “demokratik adabiyot” deb nomlanadigan adabiyot, hamda yigirmanchi asr badiiy adabiyotining tilini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni tasnif qilgan edi [1].

Bevosita sarlavhaga badiiy asar tili bilan bog‘liq muammolar chiqarilmagan bo‘lsada, tadqiqotlarda bu masalaga oid ancha salmoqli va jiddiy mulohazalar bildirilganini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, yirik adiblarimiz (Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Abdulla Qahhor, Oybek, Maqsud Shayxzoda, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Zulfiya, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov) ning bu boradagi fikr-mulohazalari alohida diqqat va e’tiborga molikdir.

Izzat Sulton, A.G‘ulomov, A.Ahmedov, X.Doniyorov, S.Mirzayev, G‘.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov, I. Qo‘chqortoyev, Q.Samadov, B.Umurqulov va boshqa olimlarning maqola va tadqiqotlarida muammoning o‘ziga xos yechim va talqinlari berilgan.

“So‘z estetikasi” degan kitob bevosita badiiy asar tili tahliliga ba-g‘ishlangani bilan e’tiborli. Unda nazariy jihatdan to‘g‘ri bo‘lgan bir fikr alohida ta’kidlanadi: “Ko‘pincha til estetikasi haqida gap ketganda, faqat muayyan yozuvchining tili atrofida fikr yuritiladi. Estetikani faqat badiiy asarlar tiligagina xos, undan tashqarida til estetikasi haqida gapirish mumkin emas deb qarash noto‘g‘ridir. Chunki til estetikasining asosi nutqning sifatiga, qandayligiga suyanadi. Jonli so‘zlashuvda ham, ko‘pincha, fikrning qanday ifodalanayotganligiga e’tibor beriladi. Ana shu e’tibor bilanoq til o‘zining kommunikativ funksiyasi bilan birgalikda estetik funksiyasini ham namoyon qiladi. Demak, nafaqat badiiy asarda, balki undan tashqarida ham til o‘zining estetik funksiyasi bilan ishtirok etishi mumkin”[1]. Umuman, filolog olimlarimizning bunday ishlari metodika sohasida ham amaliy yordam bera oladi. Ularning asosiy fikr va xulosalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish metodist olimlarimizning muhim vazifalari bo‘lib turibdi.

Badiiy asar tili xalq tili (jonli til, adabiy til)ga asoslanganligi sabab unda xalqchillik ruhi doimo ustun turadi. Badiiy asarlarda turli jamiyatlardagi hamma tabaqalarning tiliga duch kelar ekanmiz, ularning tilida qo‘llanilgan har bir so‘z tushinarli bo‘lishi talab qilinadi.

Abdulla Qodiriy asarlari tahlili bilan shug‘ullangan olimlarimiz adib mahoratining asosiy ko‘rsatkichi uning tili ekanligini e’tirof etishadi. “Abdulla Qodiriy asarlaridagi sehrli jozibaning omillaridan biri uning tilidir” [3], - deb yozadi akademik M. Qo‘shjonov. Buning sabablari esa shunday izohlanadi: “Adib so‘zlarni nihoyatda aniq tanlaydi, bu so‘zlardan nihoyatda aniq jumlalar tuzadi va bu aniq jumlalar qahramonlar holatiga tegishli aniq maqsadlarda ishlatiladi” [4]. Nazarimizda, muallifning quyidagi fikrlari ham nihoyatda o‘rinlidir: “Shu kunlarda uchraydigan chiyralgan, buralgan, sun’iy tarzda murakkablashtirilgan, aniq maqsadga bo‘ysundirilmagan so‘z va iboralar qo‘llaydigan qalamkashlar Abdulla Qodiriydan o‘rnak olsalar chakki bo‘lmas edi” [5].

Hamid Olimjon Alisher Navoiy haqida gapirarkan, uning badiiy tildan foydalanish mahoratiga alohida baho beradi. Uning «har bir bayti quyma bir haykaldan iborat bo‘lgan»ligini ta’kidlaydi. Adibning haqli e’tiroficha, «O‘z til xazinasining boy va kengligi e’tibori bilan Navoiy, Shekspir, Pushkin va Firdavsiylar qatorida turadikim, uning asarlariga lug‘at yozganlarning hech biri bu xazinaning nihoyasiga yeta olmaganlar”[6].

Hamid Olimjon Abdulla Qahhor prozasi haqida gapirib shunday yoza-di: “So‘nggi yillarda nasrchilik bobida ancha yosh talantlar yuzaga chiqdi. Bunda o‘zining katta hunarmandligi va go‘zal tili bilan yosh hikoyanavis Abdulla Qahhorning xizmati katta. Bizning yozuvchilarimiz ichida Abdulla Qahhor qadar boy va chiroyli tilga ega bo‘lgan yozuvchi yo‘q deyish mumkin. Abdulla Qahhorni, xususan tilda, boshqa yozuvchilardan ajratib turgan narsa esa uning mavzuni va turmushni chuqur o‘rganishidan, puxta va jiddiy ishlashidan, voqealarning ichidan asosiy nuqtalarini topa bilishidan, kerakni keraksizdan, zarurni nozarurdan ajrata bilganidan, o‘z hunarining texnikasini egallaganidan keladi” [2]. Demak, ijodkorlarning o‘zlari ham badiiy asar tiliga alohida e’tibor bilan qaraganlarini qayd etish o‘rinli bo‘ladi.

Yirik munaqqid va adabiyotshunos O. Sharafiddinov G‘afur G‘ulom asar-larining mashhur va manzurligini uning badiiy tili bilan bog‘liq holda ko‘rganida to‘la haq edi: “U har qanday she’rida, hatto eng ko‘tarinki ohangda yozilgan she’rlarida ham, tilning sodda bo‘lishiga, xalq tiliga yaqinlikka, jonli so‘zlashuv ohanglariga ega bo‘lishga intildi. Natijada, uning she’rla-ri yanada kuchliroq hayotiylik kasb etdi, ularning ta’sir kuchi ortdi” [2].

Adabiy asarni yaxlit jonli qiluvchi asosiy kuch badiiy tildir. U shuning uchun ham badiiy asarning hamma hujayralarida yashaydi. Shu hujayralarning tirikligini ta’minlaydi. Agar asarni millonlab so‘z hujayralarni tashkil topishini ko‘z o‘ngimizga keltira olsak, g‘oya va mazmun ham, obraz va xarakter ham, syujet va kompozitsiya ham qo‘yinki, badiiy asarning hamma unsurlari ham ana shu asosida bunyod bo‘ladi.

Taniqli yozuvchi Tohir Malik Abdulla Qodiriy asarlarining jozibasini birinchi navbatda uning tilida ko‘radi: “Abdulla Qodiriyning adabiy til borasidagi mahoratlarini durlar xazinasiga qiyoslashimiz mumkin. Adibning hikoyalari, felьyetonlari, hajviyalarini o‘qisangiz, bunga o‘zingiz ham guvoh bo‘lasiz. Toshpo‘lat tajang bilan Kalvak mahzumning so‘zlari bir-biridan tubdan farq qiladi. Yozuvchi “Ovsar” taxallusi bilan bir felyeton yozsa, “Dumbul” taxallusida yozilgan hangomadan farqlanib turadi. Bilmagan odam bu ikki asarni ikki odam yozgan, deb o‘ylashi ham mumkin” [2].

Mumtoz adabiyot namoyandalari asarlaridagi til xususiyatlari tahlili ham tadqiqotchilar e’tiborida bo‘lgan Bu jihatdan akad. A.Rustamovning Navoiy asarlari tili ustidagi kuzatishlari tahsinga loyiq. Olimning yozishicha, “til juda katta ma’rifiy ahamiyatga ega... Ammo tilning ahamiyati bu bilan tugamaydi. Tilning badiiy imkoniyati cheksiz…”. Biz prof.

S.Ashirboyevning “Qutbning “Xusrav va Shirin” dostoni va o‘zbek adabiy tili” kitobchasini alohida ko‘rsatishni istardik. Unda adabiy til va sheva munosabatlari, doston tilining fonetik, morfologik xususiyatlari ancha keng ta’riflab berilgan [4].

Mazkur yo‘nalishdagi eng jiddiy ishlardan biri sifatida M.Yo‘ldoshovning “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari” kitobini ko‘rsatish mumkin. Unda to‘g‘ri ko‘rsatilganidek, “Adabiy asarning san’at darajasiga ko‘tarila olishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balog‘atiga bog‘liq ekanligi shubhasiz. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining o‘ziga xosligini tahlil etish lozim” [4]. Muallifning o‘z oldiga “badiiy matnni tahlil qilish metodologiyasi, lingvopoetik tahlil tamoyillari va usullari, tahlil tiplari”ni o‘rganish vazifasini qo‘yganligi muhimdir. Unda badiiy matnning o‘ziga xosligi, uning tarkibi, tuzilishi, semantikasi, ifoda yo‘sini haqidagi kuzatish va mulohazalari faqat tilshunoslar uchun emas, amaliyotchi o‘qituvchilar uchun ham katta metodik yordam vazifasini bajara oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo‘chqortoyev, I. (1985). *O‘zbek adabiy tili taraqqiyoti masalalari.* Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Sulton, I. (1980). *So‘z san’ati.* Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
3. G‘ulomov, A., Ahmedov, A., Doniyorov, X. (1979). *Adabiy til va uslub masalalari.* Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Shoabdurahmonov, Sh. (1978). *Til va badiiy asar.* Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
5. Qo‘shjonov, M. (1981). *Abdulla Qodiriy ijodining badiiy tili.* Toshkent: Fan nashriyoti.
6. Olimjon, H. (1969). *Tanlangan asarlar.* Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.